

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC. 03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**AHMEDOVA GULNOZA MUXTOROVNA**

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA RUSIYZABON O‘QUVCHILAR  
NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH (umumiy o‘rta  
ta’lim maktablari asosida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**UDK: 373.5.091.3:811.512.133**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content Dissertation of the Abstract of doctoral of Science (DSc) on  
Pedagogical Sciences**

**Ahmedova Gulnoza Muxtorovna**

O‘zbek tili darslarida rusiy zabon o‘quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini  
rivojlantirish .....3

**Akhmedova Gulnoza Muxtarovna**

Development cultural conversations, Russian speaking learners on continuous  
education.....30

**Ахмедова Гулноза Мухтаровна**

Развития культуры речевого общения русскоязычных учащихся на уроках  
узбекского языка.....59

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati.....64**

Список опубликованных работ.....64

List of published works.....64

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC. 03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**AHMEDOVA GULNOZA MUXTOROVNA**

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA RUSIYZABON O‘QUVCHILAR  
NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH (umumiy o‘rta  
ta’lim maktablari asosida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSC) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3. DSc /Ped 245 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasining [www.navoiy.uni.uz](http://www.navoiy.uni.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Rasulov Ravshanxo'ja**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Niyozmetova Roza Xasanovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Muxitdinova Xadicha Sobirovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Hamroyev G'ofur Hasanovich**  
pedagogika fanlari doktori  
**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat**  
**pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 10 may soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.:(99871)281-42-44; faks: (99871) 281-24-44, (e-mail: [info@navoiy-uni.uz](mailto:info@navoiy-uni.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (256 raqam bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.:(99871)281-42-44; faks: (99871) 281-24-44, (e-mail: [info@navoiy-uni.uz](mailto:info@navoiy-uni.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 2.05 da tarqatildi. (2023-yil "10" maydagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi.)

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash  
raisi, ped.f.d., professor.



**Q.B.Yo'ldoshev**

raisi, ped.f.d., professor.

**Q.U. Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.d., dotsent.

**S. Ashirboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
fil.f.d., professor.

## **KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida ta'lim jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof qilinib, uni rivojlantirish tilni, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirishning ustuvor jihatidir. Hozirda yoshlarning o'zga tildagi nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, ushbu jarayonni samarali tashkil etish, ta'lim mazmunining lingvodidaktik va metodik asoslarini takomillashtirish, muomala odobi qoidalarini bilish, dialogik nutqqa e'tibor qaratmoq, o'zga tildagi nutqiy muloqot madaniyati komponentlarini ona tili komponentlari bilan qiyoslash, shular asosida ularni o'rgatishga doir noan'anaviy, innovatsion texnologiyalarga ko'ra ish turlarini, mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunoslarining, xususan O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, AQSh va boshqa mamlakat metodist olimlarining ta'lim oluvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish, muloqot jarayonida dialogik nutqdan unga xos birliklardan maqsadli foydalanish, muomala odobiga jiddiy rioya qilish kabilar ularning diqqat markazida turibdi. Shunga ko'ra o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyati komponentlarini rivojlantirish – muomala odobi yuzasidan mukammal ta'lim berish borasida ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi shak-shubhasiz dolzarbdir.

O'zbekistonda ham o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish sohasida yangilangan o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid tizimli faoliyat joriy etilmoqda. Davlatimiz Farmonlari va boshqa hujjatlarda mazkur sohada juda muhim vazifalar belgilanmoqda. Mamlakatimiz hududidagi alohida til siyosati uni o'qitish tizimiga ham muhim talablar qo'ygan. “Har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy”<sup>2</sup> ekanligini o'zbek tili ta'limi oldidagi, ayniqsa, ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son, 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-son, 2020- yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda O'zbek tilini yanada

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2020-yil, 19-oktabr [https:// www.xabar.uz.siyosat.prezident-ozbek](https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-ozbek).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr.

rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ПФ-6084-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi "Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risida"gi 419-son, 2020-yil 11-martdagi "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-son Qarorlari, 2020-2030-yillarda amalga oshirish dasturida va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ham xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>1</sup>.** O'rta ta'lim bosqichida ta'lim oluvchilar lug'at zahirasiga oid nutqiy muloqot madaniyati komponentlarini qolip gaplar bilan boyitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Budapesht telekommunikatsiya va media axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Nutqiy muloqot va smart (intellegent) interaktiv laboratoriyasi (Vengriya so'zlashuv departamenti, tilshunoslik va so'zlashuv ilmi), Fliyency va muloqot laboratoriyasi (elektropsixologiya, bolalar tili, neyrorabilitatsiya, musiqa persepsiyasi) ilmiy nutq laboratoriyasi (Xalqaro Avstraliya milliy universiteti), Braziliyada (Kompinas universiteti, Lafara) Fonetikada akustika va tajribaviy psixologiya markazi, Belgiya so'zlashuv studiyasi (Belgiya tilshunoslik universiteti), Kanada audiologiya milliy markazi, Mayami muloqot maktabi studiyalarida olib borilmoqda.

Til ta'limi jarayonida talabalarda kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: xorijiy til ta'limida o'quvchilarni faol fikr yuritish jarayoniga tayyorlashda kreativ faollikni rivojlantirish (Oxford University Centre Language (Angliya); muloqot kompetensiyasi kabi pedagogik faoliyatni samarali

---

<sup>1</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi:

<https://scienceweb.uz/publication/954>;

<https://cyberleninka.ru/article/n/dialogue-communicative-structures-in-the-process-of-teaching-foreign-language-dialogic-communication-skills>;

<https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/408>;

[https://www.researchgate.net/publication/307760973\\_the\\_principle\\_of\\_crosscultural\\_dialogue\\_in\\_teaching\\_foreign\\_language\\_dialogical\\_speech\\_activity](https://www.researchgate.net/publication/307760973_the_principle_of_crosscultural_dialogue_in_teaching_foreign_language_dialogical_speech_activity);

[https://www.researchgate.net/publication/275019250\\_Developing\\_Dialogic\\_Communication](https://www.researchgate.net/publication/275019250_Developing_Dialogic_Communication)

[Culture in Media Education Integrating Dialogism and Technology](#);

[https://www.researchgate.net/publication/275019250\\_Developing\\_Dialogic\\_Communication\\_Culture\\_in\\_Media\\_Education\\_Integrating\\_Dialogism\\_and\\_Technology](https://www.researchgate.net/publication/275019250_Developing_Dialogic_Communication_Culture_in_Media_Education_Integrating_Dialogism_and_Technology);

[https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-36271-3\\_6#:~:text=In%20the%20dialogic%20culture%2C%20the,be%20said%20in%20the%20future](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-36271-3_6#:~:text=In%20the%20dialogic%20culture%2C%20the,be%20said%20in%20the%20future) va boshqa manbalar

asosida amalga oshirildi

boshqarishga yoʻnaltirilgan taʼlim-tarbiyaviy vazifalarni loyihalash, maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni zaruriy nutqiy vaziyatlarda qoʻllashni optimallashtiruvchi psixologik treninglar tizimi ishlab chiqilgan (University of Tokiyo va Braziliyada (Kompinas universiteti, Lafara). Fonetikada akustika va tajribaviy psixologiya markazi); taʼlimni dinamik rivojlantirishning modulli-integrativ texnologiyalari fanlararo aloqadorlikni qoʻllash asosida ishlab chiqilgan (Belgiya soʻzlashuv studiyasi (Belgiya tilshunoslik universiteti); nutqiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyasi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish asosida ishlab chiqilgan (University of Bordeaux (Fransiya); taʼlim oluvchi maʼnaviyatini shakllantirishning neyropsixologik va lingvistik dasturlashtirishga yoʻnaltirilgan rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyasini qoʻllash asosida takomillashtirilgan (Mayami pedagogika universiteti).

Jahon olimlari tomonidan til taʼlimining rejali tashkil etilishi va boshqarilishi sohasida oʻtkazgan ilmiy tadqiqotlar natijasida taʼlim tizimida taʼlim-tarbiyaviy faoliyatni tizimli tashkil etish va boshqarishning pedagogik tamoyillarini diagnostika qilish va yangilash asosida takomillashtirish; oʻquvchilarning nutqiy muloqot jarayonida muvaffaqiyatli kreativ faolligini takomillashtirish; pedagogik tizimni modullashtirishda oʻquvchilarning lingvistik sezgirligi malakasini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish; taʼlim tizimida pedagog va taʼlim oluvchining nutqiy muloqot texnologiyasini fanlararo tashhislash asosida nutqiy muloqot odobini shakllantirish kabi pedagogik faoliyatlarni tashkil etish jarayonini modellashtirishga erishilgan. Til taʼlimida oʻquvchilarning kreativ nutqiy faoliyatini tashkil qilish jarayonida pedagog hamda oʻquvchi oʻzaro munosabatini rejalashtirish va boshqarilishini modellashtirish; oʻquvchilarning nutqiy muloqot madaniyatidagi (xulq-atvoridagi) kognitiv faoliyatini modellashtirishga oid zamonaviy tamoyillar va xorijiy tajribalardan ijodiy foydalanish yondashuvlarini tatbiq etish; oʻquvchilarning erkin nutqiy muloqot yuritish faoliyatini tashkil etishni tizimli oʻrganishga alohida eʼtibor berilmoqda.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Taʼlim rus tilida olib boriladigan umumtaʼlim maktablarida oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi boʻyicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, metodik ishlar sanoqli. Ayniqsa, dialogik nutq oʻstirishga bagʻishlangan ishlar juda oz. Metodist R.A.Yoʻldoshevning “Oʻzbek tili darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirish (III –VIII sinflar)” mavzusidagi metodik qoʻllanmasida<sup>2</sup>, “Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarda oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi” nomli monografiyasida<sup>3</sup> bu masalalar alohida boʻlimlarda yoritilgan. Professor X.S.Muxitdinovanning “Oʻzbek tilini oʻqitishda uzluksizlikni taʼminlashning ilmiy-metodik asoslari” nomli monografiyasida nutqiy muloqot

---

<sup>2</sup> Yoldoshev R.A.Oʻzbek tili darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirish (III –VIII sinflar), – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978, – 76 b. B. 8-10.

<sup>3</sup> Yoʻldoshev R.A. Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarda oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi: Monografiya. – Toshkent: – Fan va texnologiyalar Markazi, –2015. – 157 b.

mavzulari, nutqiy qurilmalar, nutqiy modellar, qoliplar yuzasidan fikrlar bayon qilingan<sup>4</sup>.

F.H.Aminovanning “O‘quvchilarni muloqot matn yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari”<sup>5</sup> mavzusidagi nomzodlik ishida o‘quvchilarni turli xil matnlar tuzish, shu matnlar vositasida muloqotga, muloqot odobiga o‘rgatish yo‘llari yoritilgan.

G.Z.Muhamedjanovanning “Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda rusiyzabon o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirish metodikasi (5–9-sinflar misolida)”<sup>6</sup> mavzusidagi tadqiqot ishida dialogik nutq o‘stirish xususida ayrim mulohazalar bayon qilingan. Muloqot madaniyati bilan bog‘liq ayrim masalalar G.X.Jumasheva, A.X.Jo‘rayev, R.O.Nabiyeva, V.I.Andriyanova, O‘.H.Islamov, M.M.Bazarova va boshqa olimlarning ishlarida<sup>7</sup> tilga olingan. O‘zbek tili metodikasiga oid tadqiqotlarda, monografiya va metodik qo‘llanmalarda dialogga xos nutqiy birliklar asosida o‘quvchilarning o‘zaro savol-javoblarini, namuna asosida o‘zaro so‘zlashishlarini tashkil etish mazmuni va usullari haqida so‘z yuritilib, nutqiy muloqot madaniyati masalalariga kam e‘tibor qaratilgan, qolip gaplar<sup>8</sup> to‘planmagan, rus tili materiallariga qiyoslanmagan, muloqot odobi qoidalari yetarlicha yoritilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari G.V.Rogova (Rossiya), I.N.Vereshagina (Rossiya), Ye.M.Rozenbaum (Rossiya), V.A.Pankrushev (Rossiya), R.X.Abubakirova (Rossiya), G.X.Agababyan (Yerevan), M.S.Balabayko (Rossiya), O.G.Miskovalar (Rossiya), V.S.Aliyeva

<sup>4</sup> Myxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishda uzliksizlikni ta’minlashning ilmiy - metodik asoslari. – Monografiya. – Toshkent, – Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi, – 2008, – 238 b.

<sup>5</sup> Aminova F.H. O‘quvchilarni muloqot matn yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent: 2007, – 157 b.

<sup>6</sup> Muhamedjonova G.Z. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda rusiyzabon o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirish metodikasi (5–9-sinflar misolida): Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: 2003, – 21 b.

<sup>7</sup> Жумашева Г.Х. Формирование основ культуры общения дошкольников на каракалпакском языке в условиях двуязычия средствами театрализованных игр: Автореф. дисс. на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Ташкент: 1996. – 16 с. Jo‘rayev A.X. Chet tilda talabalar kommunikativ malakalarini takomillashtirish texnologiyasi (ispan tili sinonimlari materialida): Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: 2009, – 22 b. Набиева Р.О. Обучение ситуативному диалогу в речевом общении на занятиях по русскому языку в 5-6 классах таджикской школы: Дисс. на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Ташкент: – 1998, – 175 с. Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дисс. на соис. уч. степ. док. пед. наук. ТГПИ, – Ташкент: 1997. Islamov O‘.H. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati talqini: Filol. fan. nomz. ilm. dar.ni. olish taqdim etilgan diss. – Toshkent: 2012, – 160 b. – B. 9-10. Dadajonova N.M. O‘zbek tili ta’limi jarayonida oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ixtisosliklarida o‘qiydigan talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi: Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: 2002, – 20 b. Umarova N.Z. Talabalarning o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi (texnika oliy oquv yurtlarining rusiyzabon guruhlarida): Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: – 2007, – 21 b.

<sup>8</sup> Qolip gap atamasi ilk bor metodist olim R.A.Yoldoshevning “O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi (Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida)” nomli 145-b., “Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” nomli (9-, 39- va b.betlarda) metodik qo‘llanmasida qo‘llangan. “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. O‘zbek tili”dagi nutqiy va lingvistik kompetensiyalarga doir talablarda “qolip gap” atamasi ishlatilgan. (18-22-b). O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da QOLIP so‘zining 4-ma’nosi (ko‘chma ma’nosi) andaza, shablon deb ko‘rsatilgan, misol tariqasida esa “Bir qolipdagi gaplar” atamasi keltirilgan. Biz “Bir qolipdagi gaplar” ifodasini qolip gaplar deb qo‘llashni ma’qul topganmiz.

(Yerevan), M.L.Vaysburd (Rossiya), L.A.Vvedenskayalar (Rossiya)<sup>9</sup> tomonidan o'quvchilarga rus va chet tillarining leksik va grammatik materiallarini, nutqiy muloqot komponentlarini o'rgatish muammolari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. O'rganilayotgan til bilan ona tilini qiyosiy o'rganish, dialogik nutq o'stirishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish muammolari ma'lum darajada xorijiy davlat olimlari tomonidan o'rganilgan. Rus tili metodist olimlarining ishlarida rus tilidagi qolip gaplar o'zbek tiliga oz qiyoslangan, bunda ruscha qolip gaplar ko'lamidan kelib chiqilgan. Rus tili, chet tillarning nutqiy shtamlari ham, muomala odobi qoidalari ham o'zbek tilidagi qolip gaplardan farq qiladi. Ushbu qiyosiy ma'lumotlardan o'zbek tili darslarida to'g'ridan-to'g'ri foydalanishning iloji yo'q. Bir qator metodist olimlar (N.I.Formanovskaya, M.S.Balabayko va b.) nutqiy muloqot madaniyati xususida izlanish olib borib, suhbatdoshlar qo'llaydigan qolip gaplar, ularga javob so'zlarni ajratib chiqish, qolip gaplarni nutqiy vaziyatga ko'ra (salomlashish, xayrlashish, tanishish va b.) mavzular bo'yicha bo'lib chiqish, muomala odobi qoidalariga aniqliklar kiritish, ikki xalqning (masalan, rus va o'zbek xalqlarining) tarixan shakllangan muomala odobi qoidalarini o'zaro qiyoslash, qolip gaplarni, muomala odobi qoidalarini o'rgatish yo'llarini tadqiq etmoqdalar.

Xorij metodist olimlaridan Larri King "How to Talk to Anyone, Anytime, Anywhere: The Secrets of Good Communication" (Как разговаривать с кем угодно, когда угодно) nomli asarida<sup>10</sup> suhbatdoshi bilan qay mazmunda, qay tarzda gaplashish, o'zini qanday tutish, qayerda kimlar bilan gaplashayotganini qay tarzda hisobga olish kabi bir qator masalalar yoritilgan, tavsiyalar bayon qilingan. Ushbu tavsiyalar, asosan, katta yoshdagilarga moslab aytilgan. Lekin ulardan ayrimlaridangina maktab ta'limida foydalanish mumkin.

Nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish sohasida qator tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bugunga qadar o'zbek tilidagi qolip gaplarni ko'proq to'plash, ularni rus tiliga qiyoslash orqali umumiy va farqli tomonlarini aniqlash, sharqona muloqot madaniyati, xususan, muomala odobi qoidalarini

<sup>9</sup> Рогова Г.В., Верещагина И.Н. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. – Москва, Просвещение, 1988, – 66 с. Розенбаум Е.М. Основы обучения диалогической речи на языковом факультете педагогического вуза: Автореф. дисс. соис. уч. степ. док. пед. наук. – Москва: 1983, – 42 с. Панкрушев В.А. Обучение студентов национальных групп педвузов профессиональному общению: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – М: 1986. – 15 с. Абубакирова Р.Х. Пути совершенствования русской диалогической речи студентов национальных групп вузов: Автореф. дисс. на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Москва: 1979, – 16 с. Агабабян Г.Х. Развитие русской диалогической речи учащихся 4–6 классов армянской школы: Автореф. дисс. на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Ереван: – 1980, – 28 с. Балабайко М.С. Обучение моделированию диалогической речи //Иностранные языки в школе. – Москва: 1976. №1. – С. 27–29. Мысцова О.Г. Взаимосвязное обучение диалогическому и монологическому видам речевой деятельности на английском языке в средней школе: Автореф. дисс. на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Москва: 1980, – 21 с. Алиева В.С. Речевые штампы и их место в практическом курсе русского языка для национальных (азербайджанских) групп языкового пединститута: Автореф. дисс. на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Ереван: 1978, – 17 с. Вайсбурд М.Л., Климентенко А.Д. Требования к речевым умениям. //Иностранные языки в школе. – Москва: 2013, – № 8. – С. 11–19.; Введенская Л.А., Павлова Л.Г. Риторика и культура речи. Издание 5-е, дополненное и переработанное. Серия Высшее образование, – Ростов на Дону: Феникс, 2005, – 544 с.

<sup>10</sup> Larry King. How to Talk to Anyone, Anytime, Anywhere: The Secrets of Good Communication. 1995. Как разговаривать с кем угодно, когда угодно и где угодно. – Москва: Альпина Бизнес Букс, 2006, 268 с.

ishlab chiqish, ikki til hodisalarini o‘zaro chog‘ishtirish, rus tilida so‘zlovchi o‘quvchilarga o‘zbekcha nutqiy muloqot madaniyatiga o‘rgatish metodikasi tadqiq etilayotgani yo‘q.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi:** Tadqiqot ishi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili ta’limining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, uning komponentlari bilan bog‘liq ta’lim mazmuni va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nutqiy muloqot madaniyati tushunchasini mohiyatan tahlil qilish, muloqot turlarini aniqlash, nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatish metodikasi bo‘yicha izlanishlarning zaruriyat ekanligini hamda nutqiy muloqot madaniyatini o‘stirish muammosining ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslash;

o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarni dialogga o‘rgatish, nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishning bugungi holatini tahlil qilish asosida o‘quvchilarga nutqiy muloqot madaniyati komponentlari – qolip gaplar, muomala odobi qoidalari yuzasidan beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni, ta’lim vositalari, metod va usullarini ishlab chiqishda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillarni belgilash;

nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga doir ta’lim mazmunini belgilash maqsadida o‘zbek tilidagi qolip gaplarni to‘plash va tasniflash, o‘zbek xalqiga xos muomala odobi qoidalarini ko‘paytirish, qiyoslash yo‘li bilan o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali metodik xulosalar chiqarish;

nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatish vositalari, an’anaviy va noan’anaviy metod va usullarni, mashqlar tizimini ishlab chiqish asosida o‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’yektini** ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishda muomala odobi qoidalari va qolip gaplar bilan faollashtirish, nutqiy mashqlar orqali mustahkamlash, muomala odobi qoidalariga rioya qilish, qolip gaplarni qo‘llash malakasini hosil qilish jarayoni tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini o‘rganish komponentlari – muomala odobi qoidalari va qolip gaplarni faollashtirishning shakl, metod va vositalari aks etgan lingvodidaktikasi va metodikasi hamda texnologiyalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada kognitiv-differensial kuzatish, qiyosiy tahlil, tasniflash, suhbat, so‘rovnomalar, pedagogik tizimga solish, umumlashtirish, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda nutqiy muloqot madaniyati tushunchasi o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning dialogik nutqini o'stirish amaliyoti bilan yangilash metodikasini ularning muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi, o'zligini va suhbatdoshlarning shaxsi, ruhiyati, jamiyatda tutgan mavqeyini anglash, nutqning kommunikativligiga e'tibor berish, ijtimoiy munosabatlar bilan shartlangan replikalar: tarkibi anglanadigan gaplar va qolip gaplar asosidagi o'zaro muloqot jarayoni uchun milliy til korpusiga mo'ljallangan o'quv lug'atlari tayyorlash va ularni qo'llashga oid vaziyatli topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zaruriyati asoslangan;

nutqiy muloqot madaniyati komponentlaridan biri sifatida qolip gaplarni tushuntirishda dars lug'atida ularning ruscha tarjimasini, izohtalab o'rinlarda qisqa sharh berish, o'zbekcha-ruscha qolip gaplar qiyosi asosida olingan o'rganishni osonlashtiradigan va qiyinlashtiradigan holatlar haqidagi ma'lumotlaridan, ko'rsatmalilik (nutqiy vaziyat aks etgan rasmlar), nutqiy namunalar,: sahna ko'rinishlaridan foydalanish; suhbatdoshlarni ma'naviy-estetik boyitish, muomala odobi qoidalarini asosida so'zlash ohangiga alohida ahamiyat berishdan foydalanish, faollashtirishda o'quvchilarning muomala odobi qoidalariga amal qilib o'zaro so'zlashishidagi mustaqilligini yangi axborot almashinuviga yo'naltirish, muloqotning izchil bo'lishini ta'minlashda (tashkiliy qism → asosiy axborot almashinuvi → so'zlashuvni tugallash qismlari mazmunida *o'zaro so'zlashishni mashq qilish*) onglilikka erishish, bilan shakllanadigan ko'nikma va malakalar ko'lamini ta'minlovchi mashqlar tizimi yaratilgan;

o'zbek tili darslarida o'quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish metodikasi, qo'llanadigan qolip gaplarni tushuntirish va faollashtirish metod hamda usullari, innovatsion texnologiyalar, rolli va kasbiy o'yinlarni ishlab chiqishga doir asosiy yondashuv va tamoyillar: *kompetensiyaviy, kommunikativ, pragmatik, nutqiy vaziyatli, faoliyatga asoslanganlik, induktiv-ongli, funksional, modulli yondashuvlar* hamda *qolip gaplarning tag ma'nosi, mazmuni, qo'llanilishini anglatish yondashuvlari va tamoyillari*, mashqlar tizimida loyihalash asosidagi mashqlar, shuningdek, sahnalashtirish tipidagi o'yinlar, namunadan foydalanib o'zaro so'zlashish, boshlab berilgan dialogni davom ettirish, dialog replikalari asosida o'zaro so'zlashish, nutqiy faoliyatda qo'llash, testlar bajarish, bahs-munozaralar kabi metodlarni qo'llashda qolip gaplarni qiyosiy o'rganish asosida takomillashtirilgan;

o'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga muomala odobi qoidalarini, qolip gaplarni o'rgatishning yaxlit metodikasi o'quvchilarning qolip gaplarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, aksincha, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish, berilgan nutqiy vaziyatga mos qolip gapni aytish, nuqtalar o'rniga mazmunan mos qolip gapni qo'yib o'qish yoki ko'chirish, berilgan izohlar asosida mos qolip gaplarni aytish, qolip gap asosida tegishli nutqiy vaziyatni aytish, o'rganilgan qolip gaplarni qatnashtirgan holda dialog tuzish yoki o'zaro so'zlashish metod va usullari asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivolantirish ehtiyojlaridan, dialogik nutq o'stirish mazmunidan kelib chiqqan holda muomala odobi qoidalarini va qolip gaplarni tanlash, to'plash, tasniflash, 2–5- va 6–9-sinflar bo'yicha guruhlash amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini o'stirishda qo'llanishini anglatish tamoyillari asosida o'quvchilarning nutqiy muloqot mahoratlarini tizimli holda rivojlantirishi ilmiy-metodik aspektda asoslangan;

dissertatsiya natijalari ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini takomillashtirishda qo'llanilgan;

ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab o'quvchilarining o'zbek tilini o'rganishlarida kognitiv usulda nutqiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirishning metodik ta'minotiga erishilgan;

ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili ta'limida orfoepik, aksentologik, lug'aviy me'yorlar asosidagi ijodiy va ijodiy produktiv mashqlar ustuvorligida o'quvchilarning nutq odobini o'stirish hamda o'zbek tili darsliklarining mundarijasini yangilashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ilmiy tadqiqot natijalaridan kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan yangi DTS va fan dasturlari hamda darsliklar yaratishda foydalanish qulayligi dalillangan;

o'zbek tili o'qituvchilari risiyzabon o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini o'stirish maqsadida "Rusiyzabon o'quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari" nomli monografiya materiallaridan foydalangan;

muomala odobi qoidalariga rioya qilgan holda qolip gaplarni ongli ravishda qo'llashga o'rgatishni ta'minlash uchun o'qituvchilarga o'zbekcha-ruscha lug'at elektron variantda tarqatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Nutqiy muloqot madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyatini ochish uchun yetarlicha lingvistik va metodik manbalardan foydalanilgani, rusiyzabon o'quvchilarning o'zbek tilidagi dialogik nutqini o'stirish metodikasi nutqiy muloqot madaniyati ustidagi ishlar bilan boyitilgani, nutqiy muloqot madaniyati komponentlari: muomala odobi qoidalari va qolip gaplar tegishli lingvistik va metodik manbalar, badiiy asarlar asosida o'rganilib, to'ldirilgani, o'zbek tilidagi qolip gaplar rus tiliga qiyoslanib, metodik xulosalar chiqarilgani, tavsiya etilayotgan mashq va topshiriqlar asosida qolip gaplarni o'quvchilar nutqida faollashtirishga erishilgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanib, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nutqiy muloqot madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyati va nutqiy muloqot turlari va omillari lingvometodik jihatdan aniqlashtirilib, o'zbek

tilidan tuzilgan dastur va darsliklarda muomala odobi qoidalarining, qolip gaplarning berilishi, sinflar kesmasida izchilligi, mashq turlari tahlil qilinib, ulardan muhim metodik xulosalar chiqarilgani, rusiyzabon o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq ta'lim mazmunining lingvodidaktik va lingvometodik asoslariga oid nazariy xulosa va tavsiyalardan o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishda, nutqiy muloqot madaniyati fanini takomillashtirishda, mavzu yuzasidan tadqiqot olib borish va monografiyalar, yangilangan DTS, o'quv dasturlari va darsliklar yaratishda, ta'lim rus va o'zga tillarda olib boriladigan maktablarning dars jarayoni sifatini oshirishda o'qituvchilarga metodik muammolarni o'rganishda ilmiy-metodik manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tavsiyalardan oliy ta'lim (pedagogika oliy o'quv yurti) muassasasi talabalari, ta'lim rus va o'zga tillarda olib boriladigan maktab o'qituvchilari uchun "O'zbek tilini o'qitish metodikasi", "Nutq madaniyati", "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi", "Nutqiy muomala odobi" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunini boyitish, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, "Xorijiy talabalar uchun o'zbek tilini o'rganish", "O'zbek va rus tillarining qiyosi" kabi qiyosiy tilshunoslik fani mazmunini nazariy xulosalar bilan takomillashtirishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarida o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish metodikasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi, shaxsning o'zligini va suhbatdoshlarning shaxsi, ruhiyati, jamiyatda tutgan mavqeyini anglash, nutqning kommunikativligiga e'tibor berish, ijtimoiy munosabatlar bilan shartlangan replikalar: tarkibi anglanadigan gaplar va qolip gaplar asosidagi o'zaro muloqot jarayoni uchun milliy til korpusiga mo'ljallangan o'quv lug'atlari tayyorlash va ularni qo'llashga oid vaziyatli topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2021-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yilning 28-dekabridagi № 15-2645 raqamli ma'lumotnomasi.) Natijada tayyorlanayotgan loyiha "Lug'at" qismi mazmuni boyib, o'zbek va rus tillaridagi qolip gaplarning qiyosiy tahlili, shuningdek, tayyorlangan monografiya mazmunan yangi, tahliliy ma'lumotlar orqali boyitilgan;

qolip gaplarni nutqiy namunalar, ko'rsatmalilik: nutqiy vaziyat aks etgan rasm, sahna ko'rinishi orqali tanishtirish, suhbatdoshlarni ma'naviy-estetik boyitish, muomala odobi qoidalari asosida so'zlash ohangiga alohida ahamiyat berish, yangi axborot almashinuviga yo'naltirish, muloqotning izchil bo'lishini ta'minlashda (tashkiliy qism → asosiy axborot almashinuvi → so'zlashuvni tugallash qismlari mazmunida *o'zaro so'zlashishni mashq qilish*) onglikka erishish, ruscha tarjimasi, izohtalablariga qisqa sharh berish bilan shakllanadigan

ko'nikma va malakalar ko'lamiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2018-yillarda bajarilgan OT-A1-018 raqamli "O'zbek tili va uning tarjimai bilan bog'liq elektron va bank-moliya terminlarining ko'p tilli lug'atlarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2020-yil 24-iyundagi № 89-03-2234-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilini o'qitishda nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi vaziyatli mashq va topshiriqlar ishlab chiqish metodikasi takomillashtirilgan;

nutqiy vaziyatga asoslanganlik yondashuviga muvofiq mashqlar tizimida loyihalash asosidagi mashqlar, shuningdek, sahnalashtirish tipidagi o'yinlar, rolli, kasbiy o'yinlarga ko'proq ahamiyat berish, namunadan foydalanib o'zaro so'zlashish, boshlab berilgan dialogni davom ettirish, dialog replikalari asosida o'zaro so'zlashish, nutqiy faoliyatda qo'llash, testlar bajarish, bahs-munozaralar kabi metodlarni qo'llashda qolip gaplarni qiyosiy o'rganishga oid ilmiy-nazariy xulosalardan ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar uchun "O'zbek tili" darsliklarini yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2021-yil 18-maydagi 01/11-01/7-625-sonli ma'lumotnomasi.) Natijada o'zbek tili darslarida o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish mazmuni, vositalari, metod va usullari takomillashtirilgan metodika asosida maktab o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi ortgan;

o'quvchilarning qolip gaplarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, aksincha, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish, berilgan nutqiy vaziyatga mos qolip gapni aytish, nuqtalar o'rniga mazmunan mos qolip gapni qo'yib o'qish yoki ko'chirish, berilgan izohlar asosida mos qolip gaplarni aytish, qolip gap asosida tegishli nutqiy vaziyatni aytish, o'rganilgan qolip gaplarni qatnashtirgan holda dialog tuzish yoki o'zaro so'zlashishga oid ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Teleradiokompaniyasining "O'zbekiston-24" kanalining "Radiojurnal" dasturida "O'zbek tilidagi qolip gaplarni qiyoslab o'rganishning ayrim masalalari" mavzusidagi intervyusidan samarali foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2020-yil 23-iyundagi 03-09/318-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot ahamiyati keng xalq ommasi, o'quvchi yoshlarga targ'ib etilib, eshittirishlarning ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik jihatdan samaradorligi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiya natijalari 5 ta xorijiy konferensiyalar va 23 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining DSc dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, to‘rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat, jami 236 sahifa.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob‘yekt, predmeti, tadqiqot usullari belgilangan. Ilmiy tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning uctuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek tili darslarida rusiyzabon o‘quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatishning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan. Bunda nutqiy muloqot madaniyati tushunchasi sharhlangan, mazmun-mohiyati, uning turlari, rivojlanish shart-sharoitlari asoslangan.

Rusiyzabon o‘quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishning hozirgi ahvoli, xususan, dastur va darsliklar tahlil qilingan. O‘quvchilarning qolip gaplar yuzasidan bilim va malakalari tavsiflangan.

Dialogik nutq ikki xil birlikdan: mustaqil ravishda tarkiban gap tuzish mumkin bo‘lgan replikalardan va qolip gaplardan tuziladi. O‘zbek tili darslarida gap tuzishni o‘rgatish metodikasi R.Yo‘ldoshev tomonidan mukammal ishlab chiqilgan<sup>11</sup>. Shuni nazarda tutib, tadqiqot ishida mustaqil ravishda gap tuzishga o‘rgatish muammolari tadqiq etilmagan. Qolip gaplar o‘ziga xos tuzilish va qo‘llanish xususiyatlariga ega bo‘lib, ayni xususiyatlar nutq madaniyati, muomala odobi qoidalariga bilan bog‘lanadi.

Ilmiy tadqiqotda nutqiy muloqot madaniyati deganda kishilikning o‘zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyot davri davomida shakllangan muomala odobi qoidalariga rioya qilib, ijtimoiy shart-sharoit, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, shuningdek, shaxsning o‘zligini va o‘zgalarning (suhbatdoshlarning) shaxsini, ruhiyatini, jamiyatda tutgan mavqeyini anglash asosida, nutqning kommunikativligiga e‘tibor bergan holda muloqotda ishtirok etishi tushuniladi, deb ta‘riflangan.


Ijtimoiy hayotda nutqiy muloqot uchun so‘z tanlash va ishlatish mahoratining o‘zi yetarli emas: suhbatdoshlar o‘z replikalarida mustaqil ravishda tuziladigan gaplar yoki yod olib ishlatadigan shablon so‘z-gaplar, qolip gaplarda ijtimoiy munosabatlarni ham e‘tiborda tutishlari lozim.

Dissertatsiyada muloqotning og‘zaki va yozma, nutqiy va imo-ishora tarzidagi, shaxslararo va guruhli, kontakt va distant, rasmiy yoki bevosita va

---

<sup>11</sup> Йўлдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини уларни кўп гапиртириш орқали ўстириш методикаси (Таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент, – Fan va texnologiya, 2012, 212 б.

bavosita hamda boshqa qator turlari haqidagi manbalarga murojaat etgan holda fikr yuritiladi, bayon qilinadi.



### 1-rasm. Nuqiy muloqot turlari.

Tadqiqotda istiqbolning dastlabki davridan boshlab, shu kunga qadar yaratilgan “O‘zbek tili” darsliklaridagi dialogik nutq o‘stirishga doir materiallar (matn namunalari, qolip gaplar, mashqlar), ularning qay tarzda taqdim etilganligi, qanday mashq va topshiriqlar havola qilingani tahlilga tortilgan, nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Tahlildan ma’lum bo‘lishicha, mashq turlarining takroriyliigi har xil: 1) bir-ikki marta uchraydigan turlari; 2) ko‘p uchraydigan turlariga ajratib tahlil qilish mumkin.

Dissertatsiyada darsliklarda qo‘langan qolip gaplar 50 dan ortiq ekanligi, muomala odobi yoritilgan matnlar ko‘p emasligi ko‘rsatilgan. Qolip gaplar dars lug‘atlarida rus tilidagi tarjimasi, zarur o‘rinlarda, qay vaziyatlarda ishlatilishi haqidagi qisqa izohlarsiz berilgan. Bu ta’lim jarayonini qiyinlashtiradigan salbiy holat deb tavsiflangan.

Darsliklarining ayrimlarida avvalgilarga nisbatan qolip gaplarga ko‘proq ahamiyat berilgan bo‘lsa-da, ular asosan dialogik matnlarda uchrashiga qarab ajratilgan, ba’zan “Muomala odobi” sarlavhasi ostida “Eslab qoling” topshirig‘i bilan lug‘at shaklida berilgan, o‘quvchilarning yoshi, hayot tajribasi va bilim saviyasi yetarlicha hisobga olinmay, faol va nafaollariga qaramay kiritilgan. Qolip gaplarni o‘rgatish va faollashtirish uchun xizmat qiladigan maxsus mashqlar keltirilmagan.

Darsda o‘qilgan matndan olingan yoki o‘qilajak matnni nazarda tutib, tuzilgan savollar mazmunini tushunish qiyinchiligi yengib o‘tilgan taqdirdagina sun’iy

soʻzlashuv vaziyatini yuzaga keltirib chiqarish mumkin: “Savollar asosida suhbatlashing”, “Suhbat matnini oʻqing va uni davom ettiring”, “...savollar asosida (...haqida) suhbatlashing”.

Dissertatsiyada darsliklardagi mashqlar materiallarini oʻzgartirish yoki oʻzgartirmaslik nuqtai nazaridan uch turga ajratilgan: oʻzgarishsiz bajariladigan (mexanik) mashqlar; yarim ijodiy mashqlar; ijodiy mashqlar. Ular misollar asosida keng izohlangan. Mahsuldor, ijodiy mashq turlariga alohida toʻxtalangan.

Tadqiqotda dialogik matn asosidagi nutqiy mashqlar bir necha guruhga ajratilgan va izohlangan.

Dissertatsiyada nutqiy vaziyatlarga tayanib bajariladigan ish turlari ham keng izohlangan.

Oʻquvchilarning oʻzbek tiliga xos muomala odobi haqidagi matnlarni va qolip gaplarni oʻzlashtirish saviyasini aniqlashga doir nazorat ishlari (test, tarjima) oʻtkazilgan va natijalari tahlil qilingan, notoʻgʻri tarjimalarning sabablari koʻrsatilgan. Masalan, “Bir qolip gapning ruscha oʻgirmasida boshqa qolip gapning tarjimasi keltiriladi”.

Tadqiqotda taʼkidlanishicha, qolip gaplar mazmunini tushunishda tag maʼnosiga koʻra ularni bir-biridan farqlash ham muhim rol oʻynaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oʻzbek tili darslarida rusiyzabon oʻquvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini oʻrgatishning lingvodidaktik asoslari”** deb nomlangan. Mazkur bobda dastlab qolip gaplar roʻyxati birmuncha mukammal holga keltirilgan, ular mavzuviy guruhlariga ajratilgan, soʻng oʻzbek tilidagi qolip gaplar, muomala odobi qoidalari rus tilidagi materiallarga qiyoslangan, nihoyat, qolip gaplar va muomala odobi qoidalarini oʻrgatishga doir bilim, koʻnikma va malakalar, qolip gaplar yuzasidan tegishli BKMLarni hosil qilishda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillar belgilab chiqilgan.

Dissertatsiyada “Oʻzbek tili” darsliklarida berilgan, xorij metodist olimlaridan N.I.Formanovskaya, M.S.Balabayko, X.R.Sokolovlar, oʻzbek tilshunoslari keltirgan, badiiy asarlardagi dialogik parchalarda faolroq qolip gaplarni ajratgan, “Oʻzbek tili” darsliklaridagi tasniflarni hisobga olgan, ularning mundarijasini kengaytirgan holda bir qadar mukammalroq roʻyxatlar berishga harakat qilganmiz. Oʻqituvchining qoʻlida ushbu roʻyxat, shuningdek, qiyosiy materiallar mavjud boʻlsa, taʼlimiy tadbirlarni rejalashtirish ham mazmunli amalga oshirilishi mumkin. Fikrimizcha, oʻzbek tilidagi aksariyat qolip gaplarning, shablon soʻz va iboralarning ruscha muqobilini topish oson kechmagan. Bu ishlar taʼlim beruvchiga ham, taʼlim oluvchilar uchun ham qiyin. Oʻquvchilarning ularni oʻz nutqida erkin ishlata olmasliklarining asosiy sababi ayni tag maʼnoni, maʼno-mazmunini anglash qiyinchiligi bilan bogʻliq.

Oʻzbek tilidagi qolip gaplar, shablon soʻz va iboralar rus tilida turlicha ifodalanadi:

1. Ikkala tildagi ushbu til hodisalari leksik va grammatik jihatdan toʻliq mos kelib, soʻzma-soʻz tarjimaga imkon beradi. Masalan: *Sogʻ boʻling. – Будьте*

здоровы. *Ishlar qalay? – Как дела? Labbay, eshitaman! – Алло, слушаю! Mayli! – Ладно. Marhamat.*

2. O‘zbek va rus tillaridagi qolip gaplar leksik jihatdan qisman mos kelmaydi. Masalan: *Oq yo‘l! – Светлого пути! Xayrli tun! Спокойной ночи! Доброй ночи!*

3. O‘zbek va rus tilidagi qolip gaplar bir-biriga leksik jihatdan mos kelgan holda, ba‘zan grammatik jihatdan farqlanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Sog‘-salomatmisan?*”, “*Tuzukmisan?*” kabi replikaier rus tilida ikki xil ifodalanishi mumkin: “*Ты здоров?*”, “*Как твое здоровье?*” Birinchi variant o‘quvchining real holati – salomatligi yomon ko‘ringan paytda beriladi. Ikkinchi variantda yashiringan ega (sen) so‘zi, unga ishora qiluvchi shaxs-son qo‘shimchasi (-san) rus tiliga притяжательный olmoshi bilan tarjima qilinadi.

4. O‘zbek tilidagi qolip gaplar rus tilida leksik va grammatik jihatdan butunlay mos kelmaydigan analogiyasi bilan beriladi. Masalan: *Xormang. – Бог в помощь. – Shukur. – Слава Богу.*

5. Qolip gapdagi so‘zning rus tilida asl ekvivalenti bo‘lmaydi. Masalan: – *So‘rayvering, bemalol. – Спрашивайте (bemalolning tarjimasi yo‘q).*

Tadqiqotda o‘zbek va rus tillarida muloqot madaniyati, jumladan, muomala odobi qolip gaplarda bo‘lgani kabi mushtarak hamda farqli jihatlar keng yoritilgan. Masalan, ikkala tilda nutqiy muloqot madaniyati muomala odobiga rioya qilish, so‘zlash ohangining suhbatdoshga ma‘qul tarzda bo‘lishiga intilishda o‘z ifodasini topadi. Gapirishda odob va odobsizlik muomala tavsifiga bog‘liq.

Har bir xalqning o‘ziga xos muloqot odobi, kishilarning ijtimoiy shartlangan xulq-atvor qoidalari mavjud bo‘lib, bu qoidalar shu shaxslarning egallab turgan lavozimi, mehnat faoliyati bilan bog‘liq nutqiy muloqot madaniyatida o‘z ifodasini topadi. Ushbu muloqot madaniyati muayyan kommunikativ nutqiy vaziyatlarda bir tipdagi standart so‘zlashuv odatlarini ham o‘z ichiga oladi.

**Dissertatsiyada nutqiy muloqot madaniyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar** “Практикум по методике обучения русскому языку в начальных классах”<sup>12</sup> nomli o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan BKMlardan ijodiy foydalangan holda bayon qilingan.

Izlanishda nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatishga doir ta‘lim mazmuni va metodlari, mashqlar tizimini ishlab chiqishda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillar ikkinchi tilni o‘qitish metodikasiga, shuningdek, o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish metodikasiga oid tadqiqot ishlariga, monografiyalar va metodik qo‘llanmalarga tayangan holda ajratilgan va izohlangan. Chunonchi, *kommunikativ yondashuv, faoliyatga asoslanganlik yondashuvi, nutqiy vaziyatga asoslanganlik yondashuvi o‘qish orqali yondashuv, axborot texnologiyalari asosidagi yondashuv, jamoaga asoslangan yondashuv, qolip gaplarning tag ma‘nosi,*

<sup>12</sup> Практикум по методике обучения русскому языку в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Т.И.Зиновьева, О.Е.Курлыгина, Л.С.Трегубова. — Москва: Академия, 2007. 304 с.

*mazmuni, qo'llanishini anglatish tamoyili, ta'lim va tarbiya birligi tamoyili, ona tili xususiyatlarini hisobga olish tamoyili va boshqalar.*

Tadqiqotning uchinchi bobi **“O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish metodikasi”** deb nomlangan. Bu bobda o'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarning dialogik nutqini o'stirish vositalari, shart-sharoitlari, metod va usullari, ko'rsatmalilik, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quvchilar dialogik nutqini o'stirishdagi o'rni, qolip gaplarni, ular bilan bog'lab muomala odobini, o'quvchilarga dialogik shaklda o'zaro so'zlashishni o'rgatishga doir mashqlar tizimi masalalari yoritilgan.

Fikrimizcha, o'quvchilarning o'zbek tilida o'zaro so'zlashuv ko'nikma va malakalarini shakllantirish ishining sifati va samaradorligi bevosita tanlanadigan metod va usullarga bog'liq. Metod va usullar esa nima o'rgatilishiga qarab tanlanadi. O'rganiladigan materiallarni uch turga ajratishimiz to'g'ri bo'ladi:

- 1) qolip gaplar, ularning ma'no-mazmuni, rus tilida ifodalanishi, qaysi nutqiy vaziyatlarda qo'llanishi;
- 2) muomala odobi qoidalari, bu qoidalarining o'zbek tili etiketiga xos jihatlari;
- 3) yaxlit so'zlashuv (dialog) namunalari.

Dissertatsiyada o'zbek tilidagi qolip gap namunalarini o'quvchilarga turli yo'llar bilan anglatish (semantizatsiya), jumladan, rus tilidagi tarjimasi va zarur o'rinlarda qo'llanishini izohlash, rus tilidagi ekvivalenti bilan qiyoslash amallari tavsiya etiladi. Mustahamlashda esa mashqlar qatori – *interaktiv usullardan* foydalanish ko'zda tutiladi.

**Ko'rsatish-namoyish etish metodi** qolip gaplar mazmunini tushuntirishga nisbatan tatbiq etiladigan bo'lsa, bunda foydalaniladigan ko'rsatmalilik nutqiy vaziyatli tasvirlar (bajarib ko'rsatiladigan harakatlar, ijro etiladigan dialoglar) tarzida bo'lishi kerak. Masalan, transportda bolaning keksa kishiga joy ko'rsatishi tasvirlangan rasm va h.k. Keyingi davrlarda bunday tasvirlar multimediya (ovozli tasvir) sifatida tayyorlanmoqda.

Darsda kichik-kichik sahna ko'rinishlari ijro etilishi ham ko'rsatish-namoyish etish metodiga xosdir. Bunda ham o'quvchilar nutqiy vaziyatli harakatlarni ko'radilar va dialoglarni eshitadilar. Aslida ushbu metod ham bevositalik metodining takomillashgan holatini ifoda etadi.

Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, muomala odobi qoidalari darslikdagi shu mazmunda berilgan matn ustida ishlash, o'qituvchining ayrim nutqiy vaziyatlarni izohlashi, ba'zan o'zbek xalqiga xos sharqona muomala odobi yuzasidan ma'lumot berishi tarzida o'rganilishi mumkin.

**“Muomala odobi qoidalari bilimdoni”** o'yini darslikdagi va darslikdan tashqari ma'lum qilingan shunday qoidalar zahirasi to'plana boshlagan davrda tashkil etilgani ma'qul.

Zamonaviy ta'lim jarayonini ilg'or modellar bazasida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida ta'lim oluvchilarning dialogik nutqini **har tomonlama**

o‘stirish imkonini beruvchi metod va usullardan foydalanish taqozo etiladi. Jumladan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi usul – guruhda ishlash usuli qo‘l keladi. Bu usul oz fursat ichida ham yangi materialni o‘zlashtirish, ham avvalgi darsda o‘tilgan mavzuni takrorlashi mumkin, bunda o‘quvchilar faolligi ta‘minlanadi, ular ham savol tayyorlashlari, ham kutilmagan paytda javob bera bilishlari kerak.

Fikrimizcha, o‘rgatish bosqichlarini esa tanishtirish, mashq qildirish va qo‘llash metodlari orqali atash maqsadga muvofiq. Eslatish lozimki, ta‘lim metodlari davrga hamohang ravishda takomillashib boradi: mashqlar turkumiga kompyuter texnologiyasi qo‘shib ishlash. Bugungi kunda video metodlar sifatida ko‘rish, o‘rgatish, elektron o‘qituvchi nazorati ostida mashq qilish, nazorat keng qo‘llanmoqda. Ayniqsa, animatsiya effektlari tasvirni yaqqol ko‘zga tashlanadigan qiladi.

Tadqiqotda rusiyzbbon o‘quvchilarga o‘zbekcha qolip gaplarni singdirishning bir necha usuli taklif qilingan va tushuntirilgan:

Ikkinchi turdagi qolip gaplarni ta‘lim oluvchi 8-9-sinflarda yoki litsey va kasb-hunar kollejida o‘rganishi maqsadga muvofiq. Bu davrda yoshlarning mantiqiy tafakkuri birmuncha rivojlangan bo‘lib, ularni o‘zlashtirishga osonlik bilan erishadi:

1) tarkiban anglash mumkin bo‘lganlarini so‘zma-so‘z tarjima qilish:

*Demak, masala hal. – Значит все решено. Yana kimda takliflar bor?– У кого есть еще предложения? Albatta kelaman. – Обязательно придут deb so‘zma-so‘z tarjima qiladi.*

2) leksik asnoda o‘rganish mumkin bo‘lganlarini ma‘no-mazmun jihatdan variantlarini keltirish:

*Qoyil! Zo‘rsan-ku! ni ta‘lim oluvchi Bravo! Какой ты молодец! ёки Какой ты классный deb tarjima qiladi. Xo‘sh, qulog‘im sizdani– Я вас слушаю deb, ma‘no variantlarini keltiradi.*

\* Ikkinchi turdagi qolip gaplarni ta‘lim oluvchi 8–9-sinflarda yoki litsey va kasb-hunar kollejida o‘rganishi maqsadga muvofiq. Bu davrda yoshlarning mantiqiy tafakkuri birmuncha rivojlangan bo‘lib, ularni o‘zlashtirishga osonlik bilan erishadilar.

3) grammatik asnoda o‘rgatish mumkin bo‘lganlari: *Yo‘q, asloni нет, вовсе, никогда, ахирни наконец, в конце концов, же, ведь, разве deb o‘g‘irish mumkin.*

Dissertatsiyada ayrim izohtalab qolip gapning qo‘llanishi haqidagi izohlarni uch xil usul bilan berish mumkinligi ta‘kidlangan:

1) mashqda uch ustun ajratib, birinchisida o‘zbekcha qolip gap, ikkinchisida uning ruscha muqobili, uchinchisida qaysi nutqiy vaziyatda ishlatilishiga doir izoh berish;

2) mashqda qolip gaplar ro‘yxatidan keyin tegishli qolip gapni tilga olgan holda qo‘llanishiga doir izoh keltirish;

3) izohni og‘zaki ravishda bayon qilish.

Bizningcha, slaydda yuqorida ko‘rsatilgan mazmunda keltirilgan yangi til hodisalarini tinglab tushunish va ularning o‘qilishi va yozilishini bilib olish, dialog matnini yaratayotganda yozma ravishda ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlashga e‘tibor qaratish zarur bo‘ladi. Shuningdek, ma‘lum bosqichda taqdimot texnologiyasi qolip gaplar ro‘yxati bo‘yicha ishni samarali tashkil qilish, vaqti-vaqti bilan takrorlab borish imkonini beradi.

“O‘zbek tili” darsliklarida rollarga bo‘lib o‘qish uchun tavsiya etilgan dialog namunalari har bir ijrochidan ikki, nari borsa uch gap aytish uchungina imkon beradi. Bunday kichik hajmli matnlar bilan dastlabki nutqiy muloqot ko‘nikmalarini hosil qilish amri mahol. Bizningcha, namunalarni, gap miqdorini ko‘paytirish orqali faollashtirish maqsadga muvofiqdir.


Rusiy zabon o‘quvchilar qolip gaplardan foydalana bilishlari lozim. Buning uchun dissertatsiyada quyidagi kabi mashq turlari va topshiriqlarni bajarish tavsiya qilinadi, ularning har biri keng izohlanadi.

Fikrimizcha, darsda o‘quvchilarning dialogik shakldagi muloqotini uyushtirish eng murakkab jarayonlar jumlasiga kiradi. Bunda yoshlarning ushbu ish turiga qiziqish bilan munosabatda bo‘lishlarini ta‘minlash muhim. Bu esa o‘qituvchining darsga ko‘radigan tayyorgarligi va bunda hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalariga bog‘liq.

Matn namunasi asosida dialogik nutq o‘stirishga qaratilgan mashqlar tizimi ham o‘ziga xos bo‘lishi, muayyan izchillik ta‘minlanishi kerak. Ushbu izchillikni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (3.1-rasmga qarang):

Tadqiqotda muloqotni ikki xil amalga oshirish mumkinligi ko‘rsatiladi:

- 1) dialogik matndagi replikalarga qarab, esda olib qolgan holda o‘zaro so‘zlashish;
- 2) yangi so‘zlarni o‘zlashtirgan, grammatik vositalarni erkin ravishda gap tuzish darajasida egallagan ko‘yi o‘zaro muloqotga kirishish.



## **2-rasm. Dialogik nutq o‘stirish mashqlari dinamikasining gipotetik modeli.**

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi (**“O‘zbek tili darslarida rusiyzabon o‘quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatish metodikasining samaradorligi”**) deb nomlangan. Tajriba-sinov materiallari tavsiflanadi, sinov natijalari matematik-statistik tahlil qilinadi.

Tadqiqotda o‘quvchilar dialogik nutqining rivojlanish darajasini baholashda ham ushbu ikkala ish turi bo‘lgan ***o‘zlashtirish parametrlaridan biri sifatida nazorat ishlari asos qilib olingan.*** Bunday nazoratning maqsadi, afzalliklari asoslangan.

Tajriba-sinov materiallari sifatida, bir tomondan, dissertatsiyaning asosiy paragraflari taqdim etilgan, ikkinchi tomondan, olti xil ish turi havola qilingan, ko‘zlangan maqsad va natijalarni ish rejasida nazarda tutish tavsiya etilgan.

**“Multimediya – videodasturlar bilan dars o‘tish”** (ma’lum bir mavzudagi muloqot namunasini dasturli, ovoqli, ko‘rgazmali, televizor, video qurilmalari yordamida taqdim etish va ijro ettirish usuli).

**“Muayyan vaziyat yoki holatni tahlil qilish”** (biron-bir hayotiy voqeya, vaziyat yuzasidan bahs-munozara o‘tkazish).

**“Nuqtai nazaring bo‘lsin”** (o‘qituvchining nutqiy vaziyatga doir muammoli topshiriqlari yuzasidan har bir o‘quvchi o‘z nuqtai nazarini bildiradi).

**“Tanqidiy tafakkur”** (o‘quvchilar biror nutqiy vaziyat yuzasidan o‘qituvchining bergan savollariga bir-birini takrorlamagan holda, tanqidiy yondashib fikr bildiradilar).

Mustaqil fikrlash o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantiradi. Bunga quyidagi kabi o‘yinlar yordam beradi: **“Taqdimot”, “Multimediya”, “Nuqtai nazaring bo‘lsin”, “Intellectual bellashuv”, “Tanqidiy tafakkur”, “Kim ko‘p qolip gap biladi?”, “Qor uyumi”, “Notiqlar bellashuvi”, “Fikrlar sandig‘i”, “Zakovat o‘yini”.**

Dissertatsiyada har bir o‘yin turi izohlangan.

Tadqiqotda tajriba-sinov ishlarining 3 bosqichda (ta’kidlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqich) tashkil etilgani ma’lum qilingan:

yakuniy tajriba-sinov ishlari boshida va oxirida qolip gaplarni o‘zbek tilidan rus tiliga va rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish mazmunidagi nazorat ishlari o‘tkazdik. Birinchi nazorat turi uchun quyidagi variantlarda qolip gaplardan foydalanildi:

### **1-variant**

Omon bo‘ling. Baraka toping. Tuzukmisiz? Bezovta qilmadimmi? Tinchmisiz? Hormang. O‘zingni qanday his qilyapsan? Sizga (senga) nima bo‘ldi? Yaxshi yuribsanmi?

### **2-variant**

Xo‘p bo‘ladi. Yo‘q bo‘lib ketmang. Rahmat, nima desangiz shu. Qanday bo‘larkin? Demak, masala hal. Bor bo‘ling. Siz kim bo‘lasiz? Hammasi joyida. Yaxshi borib keling! Omad sizga yor bo‘lsin!

### 3-variant

Ishingiz o‘ngidan kelsin! Xudo xayringni bersin! Ixtiyoringiz. Ilojim yo‘q. Arzimaydi. Ishing bo‘lmasin! Nima qilib turibsiz? Bor umidim sizdan. Haddingdan oshma! Nima deb qo‘yay?

Qolip gaplarning qilingan tarjimalarini baholashda ularning **to‘g‘ri** yoki **noto‘g‘ri** ekanligi hisobga olingan.

O‘tkazilgan nazorat natijalari quyidagi 4.1-jadvalda keltirilgan.

### 4.1-jadval.

#### O‘ZBEK TILIDAN RUS TILIGA TARJIMA QILISH NATIJALARI

| Sinf (guruh)<br>maktab                                             | O‘quvchilar<br>soni | Sinovga<br>nisbatan<br>nazorat<br>vaqti | To‘g‘ri<br>tarjimalar | Noto‘g‘ri<br>tarjimalar |
|--------------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------------------------|-----------------------|-------------------------|
| M.Ulug‘bek tum. 225-<br>maktab<br>9-“A”, 9-“B”- sinflar            | 60                  | oldin<br>keyin                          | 291<br>379            | 309<br>221              |
| Yunusobod tum. 98-<br>maktab<br>10-“A”, 10-“B”, 10-<br>“G”-sinflar | 60                  | oldin<br>keyin                          | 289<br>379            | 311<br>221              |
| Yunusobod tum. 247-<br>maktab<br>9-“A”, 9-“B”, 8-“B”-<br>sinflar   | 60                  | oldin<br>keyin                          | 280<br>370            | 320<br>230              |
| Yangiyo‘l shahar 10-<br>maktab<br>11-“A”, 11-“B”-sinflar           | 60                  | oldin<br>keyin                          | 319<br>411            | 281<br>189              |
| Jami o‘quvchilar soni                                              | 240                 | oldin<br>keyin                          | 1179<br>1539          | 1221<br>861             |

Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish uchun quyidagi nutqiy qolip gaplar berilgan:

### I вариант

Пусть удача сопутствует Вам. Бог вам в помощь! Не пропадайте. Доброго вам пути! Долгой вам жизни! Пусть сбудется все сказанное Вами! Воля Ваша! Все в порядке. Не твое дело! Не стоит!

### II вариант

Что мне ему сказать? Не выходи из себя! Как Вы скажете. Удачной Вам поездки! Ради бога! Я не побеспокоил Вас? Как ты себя чувствуешь? Что с Вами? Значит, вопрос решен. Ништяк.

#### 4.2-jadval.

#### RUS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH NATIJALARI

| Sinf (guruh)<br>maktab                                             | O‘quvchilar<br>soni | Sinovga<br>nisbatan<br>nazorat<br>vaqti | To‘g‘ri<br>tarjimalar<br>soni | Noto‘g‘ri<br>tarjimalar<br>soni |
|--------------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------------------------|-------------------------------|---------------------------------|
| M.Ulug‘bek tum. 225-<br>maktab<br>9-“A”, 9-“B”- sinflar            | 60                  | oldin<br>keyin                          | 366<br>444                    | 234<br>156                      |
| Yunusobod tum. 98-<br>maktab<br>10-“A”, 10-“B”, 10-<br>“G”-sinflar | 60                  | oldin<br>keyin                          | 380<br>458                    | 220<br>142                      |
| Yunusobod tum. 247-<br>maktab<br>9-“A”, 9-“B”, 8-“B”-<br>sinflar   | 60                  | oldin<br>keyin                          | 383<br>462                    | 217<br>138                      |
| Yangiyo‘l shahar 10-<br>maktab<br>11-“A”, 11-“B”-sinflar           | 60                  | oldin<br>keyin                          | 378<br>469                    | 222<br>131                      |
| Jami o‘quvchilar soni                                              | 240                 | oldin<br>keyin                          | 1507<br>1833                  | 893<br>567                      |

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda o‘zbek tilidan rus tiliga va rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha olingan natijalarning samaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinovda o‘quvchilarning tajriba-sinovdan oldin va keyingi o‘zlashtirishlarini Styudent-Fisher va Pirsonning  $\chi^2$  matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda jami 240 nafar o‘quvchi qatnashdi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to‘plam berilgan bo‘lsin. Biri – tajribadan keyin o‘quvchilarning o‘rtacha ballari, ikkinchisi esa – tajribadan oldin o‘quvchilarning o‘rtacha ballari. Baholar bu holda normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o‘rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo‘lib, ular amalda bajariladi.


Jadval asosida o‘quvchilarning tajribadan oldin va keyingi o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi  $N_1$  gipoteza va unga zid bo‘lgan  $N_0$  gipotezani tanlaymiz hamda quyidagi jadvalda aks ettiramiz.

#### 4.3-jadval.


#### O‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish asosida olingan umumiy ko‘rsatkichlar

|                                                 | Sinovga nisbatan nazorat vaqti | O'quvc hilar soni | To'g'ri tarjimalar soni | Noto'g'ri tarjimalar soni |
|-------------------------------------------------|--------------------------------|-------------------|-------------------------|---------------------------|
| <b>O'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish</b> | Sinovdan keyin                 | 240               | 154                     | 86                        |
|                                                 | Sinovdan oldin                 | 240               | 118                     | 122                       |
| <b>Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish</b> | Sinovdan keyin                 | 240               | 183                     | 57                        |
|                                                 | Sinovdan oldin                 | 240               | 151                     | 89                        |

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:



**3-rasm. O'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishda**



**4-rasm. Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda**

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik-statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatgichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik kriteriysi va ishonchli chetlanishlari topildi. Bular quyidagi jadvalda aks etgan:

| $\bar{X}$ | $\bar{Y}$ | $S_x^2$ | $S_y^2$ | $C_x$ | $C_y$ | $T_{x,y}$ | $k$   | $X_{n,m}^2$ | $\Delta_x$ | $\Delta_y$ |
|-----------|-----------|---------|---------|-------|-------|-----------|-------|-------------|------------|------------|
| 1,64      | 1,49      | 0,2304  | 0,2499  | 2     | 2     | 3,41      | 474,3 | 10,99       | 0,06       | 0,06       |
| 1,78      | 1,63      | 0,33    | 0,2331  | 1     | 2     | 3,95      | 437,5 | 10,08       | 0,04       | 0,06       |

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz.

O'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishda:

Ma'lumki,  $\bar{X}=1,64$ ;  $\bar{Y}=1,49$   $\Delta_x = 0,06$ ;  $\Delta_y = 0,06$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{1,64 - 0,06}{1,49 + 0,06} = \frac{1,58}{1,55} = 1,02 > 1;$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (1,64 - 0,06) - (1,49 - 0,06) = 1,58 - 1,43 = 0,15 > 0;$$

Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda:

Ma'lumki,  $\bar{X} = 1,78$ ;  $\bar{Y} = 1,63$   $\Delta_x = 0,04$ ;  $\Delta_y = 0,06$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{1,78 - 0,04}{1,63 + 0,06} = \frac{1,74}{1,69} = 1,03 > 1;$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (1,78 - 0,04) - (1,63 - 0,06) = 1,74 - 1,57 = 0,17 > 0;$$

Demak, 95 % foiz ishonch bilan aytish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi va ular hech qachon bir xilda bo'lmaydi.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishda ham rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ham sinovdan keyingi o'zlashtirish tajribadan oldindagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish hamda rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha olingan natijalarning samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

## XULOSA

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Metodik adabiyotlarni o'rganish, yaqin davrlargacha ta'lim jarayonida qo'llanib kelgan dialogik nutq o'stirish metodikasini tahlil qilish va samaradorligini aniqlash, dialogik nutq o'stirishda nutqiy muloqot madaniyatiga, nutqiy muloqot komponentlariga o'rgatish imkoniyatlarini baholash shuni ko'rsatdiki, dialoglarga xos replikalar (savollar berish, savollarga javob qaytarish) o'zbek xalqining uzoq tarixdan buyon shakllangan muomala odobi an'alariga murojaat etmagan holda qo'llangani, suhbatni jonlantirish uchun suhbatdoshlarning bir-biriga qarab savol berishi hamda javob qaytarishi tarzidagi metodikani muomala odobi qoidalariga rioya qilgan holda asl kommunikatsiya jarayonini tashkil etish borasidagi tavsiya va takliflar bugungi kunda dolzarb, tadqiqotimiz ularni ishlab chiqish va yechimlarini aniqlash zarurat ekanligini asoslash imkonini berdi.

2. Nutqiy muloqot madaniyati ifodasida ma'no-mazmun ko'lamiga ko'ra muloqotda muomala odobi qoidalariga rioya qilib, ijtimoiy shart-sharoit, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, shaxsning o'zligini va o'zgalarning (suhbatdoshlarning) shaxsini, ruhiyatini, jamiyatda tutgan mavqeyini anglash asosida, nutqning kommunikativligiga e'tibor bergan holda ishtirok etish ekanligini nazarda tutib, o'zbek tili darslarida tashkil etiladigan o'zaro muloqot mashqlarini oddiy dialoglarga xos savollar berish, savollarga javob qaytarish tarzida emas, balki muomala odobi qoidalariga rioya qilgan, ijtimoiy munosabatlar bilan shartlangan replikalar: tarkibi anglanadigan gaplar va qolip gaplar asosidagi o'zaro muloqot jarayoni deb topildi.

3. O'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun ularni muomala odobi qoidalari va qolip gaplar bilan izchil tanishtira borishda ularning ma'no-mazmunini tushuntirish, onglilikni ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Muomala odobi qoidalari "O'zbek tili" darsliklarida o'qib o'rganiladigan matnlar tarzida taqdim etiladi, tajriba-sinov ishlari ularni slaydlar, multimediya vositasida havola qilish, muloqot mashqlari, sahnalashtirish mashqlari jarayonida ushbu qoidalarga amal qilish mashqlari samarali ekanligini tasdiqladi.

4. Rusiyazon o'quvchilarga qolip gaplarni anglatish zaruriyati ularning ushbu til birliklarining mazmunini turli yo'llar, jumladan, tarjima usulidan foydalanish, dars lug'atida berilgan qolip gaplarning ruscha ekvivalentlarini, ayrim izohtalablariga esa, qaysi nutqiy vaziyatlarda qo'llanishiga doir tegishli izohlar berish kerakligini ko'rsatdi, diagnostik maqsadlarda o'tkazilgan nazorat ishlari (test, tarjima) ushbu masalalar bilan bog'liq metodik yechimlarni tayyorlash, ana shu yechimlardan biri sifatida o'zbek tilidagi qolip gaplarning rus tilidagi muqobillarini aniqlash va o'zbekcha-ruscha qolip gaplar lug'ati uchun material hozirlash zarurligi asoslandi.

5. O'zbek tilidagi qolip gaplarni o'rganish ishlarini osonlashtiradigan yoki qiyinlashtiradigan ifodalanish holatlarini aniqlash maqsadida ularni rus tiliga qiyoslash lozim. O'zbekcha qolip gaplar rus tilida asosan besh xil ifodalanadi: 1) ikkala tildagi ushbu til hodisalari leksik va grammatik jihatdan to'liq mos kelib, so'zma-so'z tarjimaga imkon beradi; 2) o'zbek va rus tillaridagi qolip gaplar leksik jihatdan qisman mos kelmaydi; 3) o'zbek va rus tilidagi qolip gaplar bir-biriga leksik jihatdan mos kelgan holda, ba'zan grammatik jihatdan farqlanadi; 4) o'zbek tilidagi qolip gaplar rus tilida leksik va grammatik jihatdan butunlay mos kelmaydigan analogiyasi bilan beriladi; 5) qolip gapdagi so'zning rus tilida asl ekvivalenti bo'lmaydi.

6. "O'zbek tili" darsliklarida nutqiy muloqot orqali egallash uchun tavsiya etilayotgan mavjud qolip gaplar umumiy o'rta ta'lim bosqichi uchun yetarli emasligini aniqlash, o'zbek tilshunoslari, xorij metodist olimlari ma'lumotlari, badiiy asarlardagi dialogik parchalarni o'rganish, so'zlashuv nutqini kuzatish asosida o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyot mobaynida to'plagan qolip gaplar merosidan rusiyazon o'quvchilar saviyasiga moslarini ajratish va ushbu qolip gaplar boyligi muloqot mavzulari nuqtai nazardan, nutqda faol ekanligini hisobga

olib tanlash, to'plash, tasniflash hamda 2–5- va 6–9-sinflarda o'rganish ma'qul bo'lgan variantlarda bo'lib chiqish natijasida ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish imkoniyatlari tug'ildi.

7. Kuzatishlardan ma'lum bo'lganidek, rusiyzabon o'quvchilar tuza oladigan sintaktik qurilmalar sanoqli ekanligi, mustaqil ravishda gap tuzib, fikr bayon qila olish malakalari yetarli rivojlanmagani, ular dialogik shakldagi so'zlashuvda ishtirok etish uchun aksariyat replikalarni, shu jumladan, qolip gaplarni yod olishlarini o'zbek tili darslaridagi jiddiy kamchiliklar deb hisoblash lozimligi asoslandi.

8. Qolip gaplarni nutqiy namunalar, ko'rsatmalilik: nutqiy vaziyat aks etgan rasm, sahna ko'rinishi orqali tanishtirish, suhbatdoshlarni ma'naviy-estetik boyitish, muomala odobi qoidalari sirasida so'zlash ohangiga ustuvor ahamiyat berish, yangi axborot almashinuviga yo'naltirish, muloqotning izchil bo'lishini ta'minlashda (tashkiliy qism → asosiy axborot almashinuvi → so'zlashuvni tugallash qismlari mazmunida *o'zaro so'zlashishni mashq qilish*) onglilikka erishish uchun dars lug'atida ularning ruscha tarjimasini, izohtalablariga qisqa izoh berish, zaruriyatga qarab muomala odobi qoidalari bilan tanishtirib borish samarali deb topildi.

9. Taklif etilayotgan innovatsion metod va usullar ta'lim mazmunini belgilash, bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlab olishdan tortib to ta'lim jarayonini tashkil etishga qadar ishlab chiqilishi, bunda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillar belgilanishi zamonaviy ta'lim jarayonini ilg'or modellar bazasida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida ta'lim oluvchilarning dialogik nutqini *har tomonlama* o'stirishga erishish mumkinligini nazariy va metodik jihatdan asoslash imkonini berdi.

10. Rusiyzabon o'quvchilarning qolip gaplarni to'g'ri va ko'proq qo'llay bilishlari uchun ularni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, aksincha, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish, berilgan nutqiy vaziyatga mos qolip gapni aytish, nuqtalar o'rniga mazmunan mos qolip gapni qo'yib o'qish yoki ko'chirish, berilgan izohlar asosida mos qolip gaplarni aytish, qolip gap asosida tegishli nutqiy vaziyatni aytish, o'rganilgan qolip gaplarni qatnashtirgan holda dialog tuzish yoki o'zaro so'zlashish, "Qolip gaplar bilimdoni" o'yinini (musobaqasini) o'tkazish va boshqa shu kabi o'n xil mashq turlari va topshiriqlardan unumli foydalanish lozim.

11. Dialogik nutq o'stirish maqsadida foydalaniladigan mashqlar sirasida loyihalash asosidagi mashqlarga, shuningdek, sahnalashtirish tipidagi o'yinlarga, rolli, kasbiy o'yinlarga ko'proq ahamiyat berish, namunadan foydalanib o'zaro so'zlashish, boshlab berilgan dialogni davom ettirish, dialog replikalari asosida o'zaro so'zlashish, nutqiy faoliyatda qo'llash, testlar bajarish, bahs-munozaralar kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi o'z isbotini topdi.

**Shuningdek, dissertatsiya natijalari sifatida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1) o‘zbek tilidagi qolip gaplarning rus tilidagi muqobillari yuzasidan tayyorlangan materiallar asosida “O‘zbekcha-ruscha qolip gaplar lug‘ati”ni nashr qilish;

2) o‘zbek tilshunoslari, xorij metodist olimlari ma’lumotlari, badiiy asarlardagi dialogik parchalarni o‘rganish, so‘zlashuv nutqini kuzatish asosida o‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyot mobaynida to‘plagan muomala odobi qoidolari va qolip gaplar asosida ta’lim mazmunini boyitish;

3) “O‘zbek tili” darsliklarida qolip gaplarni va ularni faollashtirishga qaratilgan mashq turlarini, ayniqsa, mahsuldor, ijodiy mashqlarni, noan’anaviy ish turlarini tadqiqot ishimizda berilgan noa’naviy va yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan metod va usullar bilan boyitish;

4) o‘zbek tili darslarida rusiyzabon o‘quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatish jarayonini muomala odobi qoidolari va qolip gaplarni dissertatsiyada ishlab chiqilgan samarali ta’lim mazmuni, vositalari, metod va usullaridan foydalanib tashkil etish maqsadga muvofiq.

**ONE-TIME TASHKENT SCIENTIFIC COUNCIL  
AT THE SCIENTIFIC COUNCIL NUMBER DSc.03/30.12.2019.Phil.19.01  
ISSUER OF SCIENTIFIC DEGREES UNDER TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED  
AFTER ALISHER NAVOI**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEKI LANGUAGE AND  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**AKHMEDOVA GULNOZA MUXTAROVNA**

**DEVELOPMENT CULTURAL CONVERSATIONS, RUSSIAN SPEAKING  
LEARNES ON CONTINUOUS EDUCATION**

**13.00.02 – Theory and methodology of education and training (Uzbek)**

**DOCTOR OF PEDAGOGICAL SCIENCES (DSc)  
DISSERTATION ABSTRACT**

**Tashkent – 2023**

**The theme of the Doctor of Science (DSc) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan with the number B2022.3.DSc/Ped245.**

The dissertation has been carried at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, Russian, English (resume) languages is placed on the web page ([www.vocedu.uz](http://www.vocedu.uz)) of the Scientific Council and Information and on the "Zionet" and education portal ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific supervisor:**

**Rasulov Ravshanxodja**

Doctor of filological sciences,  
professor

**Official opponents:**

**Niyozmetova Roza Xasanovna**

Doctor of pedagogical sciences,  
professor

**Mukhitdinova Xadicha Sobirovna**

Doctor of pedagogical sciences,  
professor

**Khamroyev Gofur Hasanovich**

Doctor of pedagogical sciences

**Leader organization**

**Tashkent State university of  
Pedagogical named Nizamy**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered DSc.03/30.12.2019.Phil.19.01 at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi in 2023 at 10 may at 10.00. (Address: 100100, Tashkent city, Yusuf Xos Khojib, 103, Tel.: (0371) 281-45-11; fax: (0366) 239-17-14; e-mail: [interdep@navoiy-uni.uz](mailto:interdep@navoiy-uni.uz).)

The dissertation can be reviewed in the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered with number \_\_\_\_). (Address: 100100, Tashkent city, Yusuf Xos Khojib, 103. Tel.: (0371) 281-45-11.)

The abstract of the dissertation was distributed on “   ”                     , 2023.  
(Report of the \_\_\_\_ - digital register on “10” may of 2023).



**Q.B.Yuldashev**

Chairman of the Scientific Council granting scientific degrees,  
DSc, professor

**Q.U.Pardayev**

Secretary of the Scientific Council granting scientific degrees,  
DSc, Associated professor

**S.Ashirboyev**

Chairman of the Scientific seminar under the  
Scientific Council granting scientific degrees, DSc, professor

## INTRODUCTION (Doctor of Science (DSc) Dissertation Annotation)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** Globally, education is recognized as the main factor determining the development of society, and its development is a priority aspect of raising the language and enlightenment and spirituality. In particular, the development of the culture of speech communication in a foreign language among young people in the world, the effective organization of this process, the improvement of the linguo-didactic and methodical foundations of the educational content, the rules of etiquette, the division into units specific to dialogic speech, the components of the culture of speech communication in a foreign language, the components of the mother tongue. It is important to compare them with, based on this information, to train them in non-traditional, innovative technologies, to develop a system of exercises, to improve them based on experiences, and to put them into practice.

Linguists of the world, in particular Methodist scientists in Uzbekistan, Kazakhstan, Russia, the USA and other countries, teach students the culture of socially important speech communication, the units of dialogic speech in the communication process, and the observance of appropriate etiquette in communication. They do not ignore such educational problems. Accordingly, scientific research is being carried out on the development of the components of students' speech communication culture, including providing excellent education in terms of etiquette, and developing a system of work and exercises that serve this.

PF-5712 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 29, 2021 "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", dated October 8, 2019 "Uzbekistan PF-5847, dated October 21, 2019, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"on. PF-5850, Decree No. PF-6084 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 2020 "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" no. 419 of July 5, 2021 "On the Department of Spirituality and Development of the State Language", March 11, 2020 "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2020-yil, 19-oktabr [https:// www.xabar.uz.siyosat.prezident-ozbek](https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-ozbek).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr.

yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Resolutions No. 139, 2020-2030 to a certain extent, this dissertation research serves the implementation of the tasks specified in the implementation program and other regulatory legal documents related to this activity.

**Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic.** I. It was carried out within the framework of the priority direction "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state".

**Review of foreign scientific research on the topic of the dissertation<sup>1</sup>.** Scientific research aimed at improving the methodology of enriching the components of speech communication culture with stereotyped sentences for the vocabulary of students at the secondary level of education is carried out by the world's leading centers and institutions of higher education, including Budapest University of Telecommunications and Media Information Technologies. Laboratory of Speech Communication and Smart Interactive (Hungarian Department of Speech, Linguistics and Speech Science), Fluency and Communication Laboratory scientific speech laboratory (International Australian National University), It is being conducted in the studios of the Center for Acoustics and Experimental Psychology in Phonetics in Brazil (Compinas University, Lafara), the Belgian Speech Studio (Belgian University of Linguistics), the Canadian National Audiology Center, and the Miami School of Communication.

The following scientific results were obtained regarding the development of cognitive skills in students in the process of language education: development of creative activity in preparing students for the process of active thinking in foreign language education (Oxford University Language Center (England); effective management of pedagogical activities such as communication competence A

---

<sup>1</sup> Review of foreign scientific research on the topic of the dissertation:

<https://scienceweb.uz/publication/954>;

<https://cyberleninka.ru/article/n/dialogue-communicative-structures-in-the-process-of-teaching-foreign-language-dialogic-communication-skills>;

<https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/408>;

[https://www.researchgate.net/publication/307760973\\_the\\_principle\\_of\\_crosscultural\\_dialogue\\_in\\_teaching\\_foreign\\_language\\_dialogical\\_speech\\_activity](https://www.researchgate.net/publication/307760973_the_principle_of_crosscultural_dialogue_in_teaching_foreign_language_dialogical_speech_activity);

[https://www.researchgate.net/publication/275019250\\_Developing\\_Dialogic\\_Communication](https://www.researchgate.net/publication/275019250_Developing_Dialogic_Communication)

[Culture in Media Education Integrating Dialogism and Technology](#);

[https://www.researchgate.net/publication/275019250\\_Developing\\_Dialogic\\_Communication\\_Culture\\_in\\_Media\\_Education\\_Integrating\\_Dialogism\\_and\\_Technology](https://www.researchgate.net/publication/275019250_Developing_Dialogic_Communication_Culture_in_Media_Education_Integrating_Dialogism_and_Technology); [https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-36271-3\\_6#:~:text=In%20the%20dialogic%20culture%2C%20the,be%20said%20in%20the%20future](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-36271-3_6#:~:text=In%20the%20dialogic%20culture%2C%20the,be%20said%20in%20the%20future)

and based on other sources.

system of psychological training was developed to design focused educational tasks, to optimize the use of spiritual and moral qualities in necessary speech situations (University of Tokyo and Brazil (Compinas University, Lafara) Center for Acoustics and Experimental Psychology in Phonetics); modular-integrative technologies of dynamic language development were developed based on the application of interdisciplinary communication (Belgian Conversation Studio (Belgian University of Linguistics); technology for improving speech communication competence was developed based on the development of cognitive abilities (University of Bordeaux (France); developed on the basis of the use of developmental educational technology focused on neuropsychological and linguistic programming of the formation of the learner's spirituality (Miami Pedagogical University).

As a result of scientific research conducted by world scientists in the field of planned organization and management of language education, improvement of pedagogical principles of systematic organization and management of educational activities in the educational system based on diagnosis and renewal; students' speech improvement of successful creative activity in the process of communication; development of mechanisms for forming students' linguistic sensitivity skills in modularizing the pedagogical system; modeling of the process of organizing pedagogical activities such as the formation of speech etiquette on the basis of the interdisciplinary diagnosis of the speech communication technology of the pedagogue and the learner in the educational system has been achieved. Modeling the planning and management of the interaction between the pedagogue and the student in the process of organizing students' creative speech activity in language education; implementation of modern principles and

<sup>3</sup> Yoldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish (III –VIII sinflar). – Toshkent: O'qituvchi, 1978, – 76 b. B. 8-10. Yo'ldoshev R.A. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi: Monografiya. – Toshkent: – Fan va texnologiyalar Markazi, –2015. – 157 b.

<sup>4</sup> Myxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishda uzliksizlikni ta'minlashning ilmiy - metodik asoslari. – Monografiya. – Toshkent, – Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi, – 2008, – 238 b.

<sup>5</sup> Aminova F.H. O'quvchilarni muloqot matn yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent: 2007, – 157 b.

<sup>6</sup> Muhamedjonova G.Z. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi (5–9-sinflar misolida): Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: 2003, – 21 b.

